

SABOT UL-OJIZINDA TAJNIS

Abduraimova Gulshoda Abdurashid qizi
SamDU filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: SamDU dotsenti M. Xasanova

Annotatsiya: “Sabot ul-ojizin” da kelgan tajnislar haqida muxtasar so‘z yuritiladi. Tajnis qator ko‘rinishlari tahlilga tortilib, yozuvchining mahorati ochib beriladi.

Kalit: Masnaviy, tajnis, omograf, ravonlik, o‘xshashlik.

Annotation: The article briefly deals with the tadjnises given in “Sabot ul-ojizin”. Various types of tadjnis are analyzed and thereby the outstanding skill of the writer is shown.

Key words: Masnavi, tadjnis, homograph, emotionality, parallel.

Lug‘atlarda tajnisga quyidagicha ta‘rif beriladi: “tajnis”(hamjins, jinos) mumtoz adabiyotdagi she‘riy san‘at; shakli bir xil (omonim(tallafuzi va yozilishi bir xil birdan ortiq so‘zlar: o‘t-o‘t-o‘t) yoki bir-biriga yaqin omograf(talaffuzi farqli, yozilishi bir xil bo‘lgan birdan ortiq so‘zlar tok-tok) .¹ Shayx Ahmad TaroziY o‘zining “Funun ul-balog‘a” asaida tajnis haqida so‘z yuritib unga quyidagicha ta‘rif beradi. Tajnis ul bo‘lurkim, shoir bayt ichida iki kalima keltururkim, biri birining jinsi bo‘g‘ay bir vajdin va bu san‘at yetti nav’ bo‘lur:

Tajlisi tom- bu nav’ aningtek bo‘lurkim bir bayt ichida ikki kalima keltururlarkim, biri biriga sur‘atga muvofiq va ma’noda muxolif bo‘lur.²

Al-tajnisuz-zoyid- bu san‘at aningtek bo‘lurkim, ul ikki kalima biri birining jinsidir. Xurufi “to” muttafiq va harakati muvofiq bo‘lur, netokkim xol va xoli Al-tajnis-un-noqis- bu nav’ aningtek bo‘lurkim ul ikki lafzkim, biri birining mutajonisidir. Xurufi “to” muttafiq bo‘lurlar va xarakatga muxtalif, netokkim turk va tark.³

Al-tajnis-ul-murakkab- bu aningtek bo‘lurkim, ul ikki kalimakim, birining jinsidir, birisi ikki lafzdin murakkab bo‘lur va undan so‘nggi bo zor murakkab turur. Al-tajnis-ul -mukarrar-bu aningtek bo‘lurkim baytning ajzinda ikki lafz kelturur biri biriga payvasta va avvalgi lafz so‘ng‘I lafzdin artuq bo‘lur yo bo‘lmas, netokkim: gulzor-zor.⁴

Al- tajnis ul-mutarraf- bu aningtek bo‘lurkim, ul ikki kalimakim mutajonisidir, barcha hurufta muvofiqdur va oxir har harf muxolif, netokkim: ofoq va ofot.⁵

¹ Hojiyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. T.: O‘zbekiston ME nashr. -B.70

² Ahmad Taroziy. “Funun ul balog‘a” -T.:Xazina.1996. -B. 86

³ O‘sha asar.-B.87

⁴ O‘sha asar.- B 89

⁵ O‘sha asar.-B.90

Al-tajnis ul-xat-bu aningtek bo'lurkim, ul ikki kalima bir biriga suratga mushobehdur va lafzda ermas, netokkim chin va xo'tan⁶.

At-tarseyu-maat-tajnis- bu san'at aningtek bo'lurkim, baytni tamom ham tarse qilurlar, ham tarse qilurlar, ham tajnis. Tarse' har necha o'z nafsi bila baland poya turur, agar yana o'zga san'at anga qarib bo'lsa, hanuz purmoyaroq bo'lur⁷.

Atoulloh Husayniy o'zining "Badoyi us-sanoyi" asarida tajnisga quyidagicha ta'rif beradi: "Ani jinos ham derlar. Lug'atda biror narsa bilan o'xshash bo'lmoqtur, jinos esa hamjins ma'nosidadur. Istilohta- ikki yoki andin ortiq lafzning na'vu turlari bayon etilgan ko'rinishlaridan birida bir- biriga o'xshamog'idan iborattur. Ul ikki na'vdur: lafziy tajnis va g'ayri lafziy tajnis. Garchi ba'zi hollarda bular qo'shilsa ham tubanda ma'lum bo'lurkim, o'rni bila bir-biridan ayrilib tururlar"⁸. Atoulloh Husayniy bu qarashni bardavom qilib, g'ayri lafziy tajnis (tajnisi noqis (sher-shir, dur-davr)-noqisli tajnis)ga bunday ta'rif beradi: "Ani tajnisi muxtalif va tajnisi muharraf ham derlar. Ul lafzlarning harflar soni turi va tartibida muvofiq bo'lib, harakat, u sukunot, tashdidu tahfif, maddu qasrdin bo'ladug'on shaklda turlicha bo'lmog'udon iboratdur"⁹. Hazrat Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" da quyidagi jummalarni keltiradi "Mavlono Muhammad Amin "dilbaram" lafzin yetti tajnis bila aytib, ul g'azalni Bobur Mirzo tobug'ida kelturdi¹⁰. Ta'kidlaganimizdek, mumtoz she'riyatda tajnisning har ikki turidan keng yo'sinda foydalanilgan holda, fikrlarni ta'sirchan etishga, obrazlilikni kuchaytirishga badiiy so'z quvvatini oshirishga erishganlar. Bular so'z o'yinlari darajasida qabul qilinsa-da, she'rning ravon chiqishida, ifodaning silliq bayonida uning estetik quvvatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan. VXIII asrning muhim yodgorligi bo'lgan "Sabot ul-ujizin" ham bundan mustasno emas. Bu kitob muallif So'fi Olloyorning fors-tojik tilidagi "Maslak ul-muttaqin" ning muridlar iltimosiga ko'ra tarjima qilingan muhim qismidir. Mazkur kirob e'tiqodiy sog'lomlik, ma'naviy poklik dasturidan dars berishi bilan ahamiyatlidir. Boshqacha ta'riflaydigan bo'lsak, unda Qur'oni karim va Hadisi sharifda hukm qilingan aqoidlarning she'riy in'ikosi ko'proq tajnisli so'z va iboralar orqali bayon etilgan. Asosiy maqsad kishilarga Alloh kalomida kelgan amrlarga so'zsiz itoat etish va Muhammad sallolohu ayahi vasallamning sunnatlarini ado qilishdan iborat bo'lgan. Shu sababdan muallif asarni jamiyatning barcha qatlamiga tushunarli bo'lishini nazarda, bir-biridan ta'sirchan tashbehlar, chiroyli so'z o'yinlari, ajoyib tamsillar, istiora vo boshqa badiiy tasvir vositalari bilan ziynatlangan sanaladi. Kitob nazarimda, mazmunan quyidagi masalalarga: shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat masalalariga bag'ishlangan sanaladi.

⁶ O'sha asar.-B.91

⁷ O'sha asar.-B.93

⁸ Atoulloh Husayniy. Badoyi us-sanoyi.-T.:San'at jurnali,2007.-B.38-39

⁹ O'sha asar.-B.39-46

¹⁰ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. To'la asarlar to'lami. O'n jildlik 9-jild.-T.: G'afur g'ulom nomidagi. NMUI. 2011.-B.66-67

Asarning qiyomatning haqlig‘I bayoni bobida, qiyomatning haqligiga barcha mo‘min musulmonlarning iymon keltirgani va qiyomatdan keyin nimalarga iymon keltirishi haqida so‘z boradi, buni quyida keladigan misralar orqali ham bilib olishimiz mumkin bo‘ladi. So‘fi Olloyor bir qator masnaviy baytlarda tajnislarga o‘rin berib, turli xil masalalarni aniq misollar bilan ochib bergan sanaladi.

Uyolma ma‘rifatni o‘rganurdin,
Tanur joying bo‘lur, qolsang *tanurdin*.

Ushbu bayt orqali uyalib ma‘rifat ilmini o‘rgishdan uyalib, haqni tanish ,bu ilmdan bexabar qolgan insoning joyi do‘zaxda bo‘lishi aytiladi.

Uyolmasdur talab amrini olg‘on ,
Qolur yaxshi *uy olg‘ondan uyalg‘on*.¹¹

Ma‘rifat ilmni orlanib so‘ramagan, jannatdan benasib qolishi nazarda tutilayabdi. Bu misra hazrat Alisher Navoiyning ``Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim misrasiga ham tog‘ri keladi.

Rizo ayvonida topqon kishi jo,
Demas ``vo`` bobi ofat bo‘lsa ham *vo*.

Birov rizolik ayvonida o‘rin topib, Alloh taoloning rizolik maqomida bo‘lsa, qarshisida balo eshiklari ochilgan taqdirda ham ``oh-voh`` qilmaydi. Hamisha rizolik talabida bo‘ladi. ``Vo`` ning ikkinchisi- ochish ma‘nosida.

Agar mag‘zi diling ayrilsa to po‘st,
Yig‘ini yig‘, agar chin qulsan, ey do‘st.¹²

Ey do‘stim, agar sen o‘sha baloyu qazolardan yurak moying yoki tering ajrab ketsa ham, sabr qil. Yig‘lashni qo‘y. Alloh taoloning sevgan bandasi ekansan shunday qil.

Xudo amrig‘a oqil g‘am yemasdur,
Demas *gardun* qilur *gar dun* emasdur.¹³

Aql egasi bo‘lmish kimsa Alloh taolo yuborgan baloyu qazolarga qayg‘urmaydi. Bu qadar osmon balolari meni egdi ,demaydi ham. Balki sabrda sobit turadi demoqchi adib.

Egam hukmiga har kim bo‘lsa mamnun,
Ko‘tarmas *un* agar boshin qilur *un*.

Agar qaysi banda Alloh chiqargan hukmiga qazoyu taqdiriga rozi bo‘lsa, isyon qilib ovoz chiqarmaydi, bu holatdan nolimaydi aksincha boshini ham xuddi bug‘doy kabi egib turadi.

Bu *toqqa* sursalar tashlab u *tog‘din*,
Sanodin o‘zga chiqmas aqli sog‘din.

¹¹ O‘sha asar. -B.8-9

¹² O‘sha asr.-B.44

¹³ O‘sha asar. -B.45

Sabr ahliga azob berib, bu tog`dan u toqqa tashlasalar ham, aql egalarining og`zidan Allohning zikri sanosidan boshqa narsa chiymaydi deb ta`kidlanmoqda.

Agar *qiyndir* ming qilsalar *qiyn*,
Qachon tushgay chin erni ko`ngliga chin?¹⁴

Agar biror kishini boshqa bir banda ming bor urib qiynasa ham , u kishi sabr qilib, Faqatgina Allohdan mag`rifat umid qilsa u Allohning haqiqiy quli bo`lib qoladi.

Agar bo`lsun desang yengil og`irlar,
Chiqib *bir yona* tob *biryon* bag`irlar.¹⁵

Agar og`irlar yengil bo`lishini xohlasang, g`am alamga botgan ko`ngillarni bir tarafga chiqib top, chunki g`amga botgan ko`ngilni quvontirish ham og`irni yengil qilish bilan tengdir.

Qilur qattiq takallum o`ng ishing chap,
So`zing *tiklab* ko`ngil buzg`uncha *tik lab*.¹⁶

Bu misrada qattiq va dag`al so`zlash o`ng kelayotgan ishingni ham chappa qilishi mumkin. Seni tik turgan hozirjavob labing ko`ngillarni buzgandan ko`ra sen o`zingni so`zingni nima deyotganingni anglab ol deyilmoqda.

Sovuq ayg`uncha, ey xalqi zamona,
Zabona xavfidan muhr et *zabona*.¹⁷

Bu misrada Ey xalq, biror so`zni yomon aytib uni alangalatgandan ko`ra tilingni tiyib sukut ayla deyilmoqda. Zeroki, til suyaksiz bo`lganligi bois u yaxshi ishlarga ham yomon ishlarga ham qodir.

Yuqorida biz “ Sabot ul-ojizin”da kelgan tajnislar haqida muxtasar so‘z yuritdik. Bu asarda yana bir necha o‘rinda tajnisning qator ko‘rinishlari uchraydi. Bugina emas, kitobning barcha fasllarida tajnis juda ko‘p ishlatilgan. Bu holat muallifning o‘zbek tili imkoniyatlaridan, uning leksikasidan benihoya chuqur xabardorligidan buni amalda ko‘rsata bilish qobiliyatidan darak beradi. Shu hodisa kitobdagi har bir misraning emotsionallik xususiyatidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hojiyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati.-T.:O‘zbekiston ME nashr 1995. -B.70
2. Ahmad Taroziy. Funun ul-balog‘a. -T.:Xazina.1996.-B.86
3. Atulloh Husayniy. Badoyi us-sanoyi.-T.:San‘at jurnali,2007.-B.38-39
4. Alisher Navoiy . Majolis un-nafois. To‘la asarlar to‘plami. 10-jildlik.9-jild.-T:G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU.2011.-B.66-67
5. So‘fi Olloyor. Sabot ul-ojizin.-T.:San‘at jurnali, 2007.-B26

¹⁴ O`sha asar.-B.45-46

¹⁵ O`sha asr.-B.55

¹⁶ O`sh asar.-B.77

¹⁷ O`sha asar.-B.7